

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 4 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rahimov Oйбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ .....	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI .....	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TANLILI .....	181-184
<b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330



<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI .....	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ .....	335-342
---	---------

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ .....	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ .....	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ .....	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI .....	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA .....	383-387
---	---------

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА .....	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH .....	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI .....	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH .....	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI .....	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI .....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYI VAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHLTLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*

**IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING**

**INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532**

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*

**ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539**

**Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich**

Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD.  
El-pochta: kanimkulov812310@gmail.com

**AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING  
SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA)**

**Annotatsiya.** Maqolada birinchi o'zbek arxeolog olimi Yahyo G'ulomov ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan sug'orilish tarixi bo'yicha olib borgan izlanishlari haqida so'z boradi. Ayniqsa, olimning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarini o'rganishning ilmiy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada Ya.G'ulomovning ushbu asari bo'yicha zamondoshlari fikr-mulohazalari o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Yahyo G'ulomov, T.Mirg'iyosov, sun'iy sug'orish tarixi, V.V. Bartold, Qubatau tog'i, "Uzkomstaris", M.E.Masson, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, S.P.Tolstov, M.Yu.Bayoniy, "Pravda Vostoka" gazetasi, "Xorazmning sug'orilish tarixi asari, Kaulbars.

---

**Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich**

Gulistan State Pedagogical  
Institute senior teacher, PhD.

**NOTES ABOUT THE ACTIVITIES OF ACADEMICIAN YAHYA GULYAMOV (BASED ON THE  
EXAMPLE OF THE WORK "HISTORY OF IRRIGATION OF KHOREZM")**

**Abstract.** The article describes the research of the first Uzbek archaeologist Yahya Gulomov on the history of irrigation, which is one of the main areas of his scientific activity. In particular, the scientific significance of studying the scientist's work "History of Irrigation of Khorezm" is discussed. The article also provides the opinions of contemporaries about this work of Y. Gulomov.

**Key words:** Yahya Gulomov, T. Mirgiyasov, history of artificial irrigation, V.V. Bartold, Mount Kubatau, "Uzkomstaris", M. E. Masson, Khorezm archaeological and ethnographic expedition, S. P. Tolstov, M. Yu. Bayony, newspaper "Pravda Vostoka", "History of Khorezm Irrigation", Kaulbars.

---

**Канимкулов Олимжон Шералиевич**

Старший преподаватель, (PhD), Гулистанского  
государственного педагогического Института

**ЗАМЕТКИ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКАДЕМИКА ЯХЬИ ГУЛЯМОВА  
(НА ПРИМЕРЕ РАБОТЫ «ИСТОРИЯ ИРРИГАЦИИ ХОРЕЗМА»)**

**Аннотация.** В статье рассказывается об исследованиях первого узбекского археолога Яхьи Гуломова по истории ирригации, которая является одним из основных направлений его научной деятельности. В частности, обсуждается научная значимость изучения труда учёного «История ирригации Хорезма». Также в статье приводятся мнения современников об этом творчестве Я. Гуломова.

**Ключевые слова:** Яхья Гуломов, Т. Миргиясов, история искусственного орошения, В.В. Бартольд, гора Кубатау, «Узкомстарис», М. Э. Массон, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция, С. П. Толстов, М. Ю. Байоний, газета «Правда Востока», «История Хорезмского ирригации», Каулбарс.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N09>

**Kirish.** O'zbekistonda arxeologiya fani rivojida, ushbu sohada mahalliy kadrlarni tayyorlash borasida birinchi o'zbek professor arxeolog olimi Yahyo G'ulomovning xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yahyo G'ulomov nafaqat yirik tashkilotchi, shuningdek, yirik mutaxassis arxeolog-olim ham. U kishining nafaqat O'zbekiston shuningdek, butun Sharq taraqqiyotida muhim o'rin tutgan sug'orish tizimini o'rganish borasida o'tgan asrning 30-40 yillarida olib borgan tadqiqotlari hanuz o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yahyo G'ulomovning **“Xorazmning sug'orilish tarixi” asari** sharq tamadduni paydo bo'lishi va rivojida o'ta muhim o'rin tutgan sug'orish tizimi borasida qimmatli ma'lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili:** Yahyo G'ulomov shaxsi va uning ilmiy faoliyatiga olimning shogirdlari A.Muhammadjonov [1; 3, 4-b; 7, 79-92-bb], A.Asqarov [2; 4, 3-b; 5, 19-26-bb; 6, 34-35-bb] va boshqalar o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tgan. Ular orasida A.Muhammadjonovning “Yahyo G'ulomovni xotirlab” asari, A.Asqarov maqolalari va B.V.Luninning bibliografik risolasini [8] alohida ajratib ko'rsatish mumkin. O'zbekiston Milliy Arxivi, O'zR FA Asosiy kutubxonasi arxivi, Tarix va arxeologiya instituti arxivi hamda olimning uy arxivi hujjatlariga asoslanib aytishimiz mumkinki, 50-70 yillarga kelib akademik Yahyo G'ulomov nafaqat Markaz yoki respublika olimlari, balki, chet el hamda mamlakatimizning turli xil hududlaridan tariximizni o'rganish, muhofaza qilish masalalarida maslahat olish mumkin bo'lgan ko'zga ko'ringan mahalliy tarixchi olim bo'lgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yahyo G'ulomov faoliyati bo'yicha mazkur maqola muallifi ham 2023 yilda ilmiy tadqiqot ishini himoya qilgan.

**Tadqiqotning metodologiyasi;** Mazkur ilmiy maqolaning ilmiy – nazariy asosi tarix fani oldida turgan dolzarb masalalarni hal qilishda xolisonalik, haqqoniylik, tarixiylik va hujjatli ravishda asoslanganlik tamoyillariga tayanadi. Maqolamizda, akademik Yahyo G'ulomov shaxsi, uning O'zbekiston tarixini o'rganishdagi o'rni va ilmiy merosi haqidagi turli davriy nashrlar tahlil etiladi va sivilizatsion jarayonlarni tadqiq etishda olimning xizmatlari sifatida umumlashtiriladi.

**Tahlil va natijalar:** Yahyo G'ulomovning ilmiy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, eng qadimgi davrlardan O'zbekistonda sug'orma dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi, ilk-shaharlarning vujudga kelishi va shaharsozlik madaniyatining taraqqiyoti tarixi, o'rta asrlarda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolari, qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari tarixini o'rganilishi kabi jihatlarni qamrab oladi. Ayniqsa, olimning Markaziy Osiyo xo'jalik hayotining asosi bo'lmish sug'orish sohasidagi fundamental ilmiy izlanishlari natijalari tahsinga loyiq. Olim o'z ilmiy izlanishlarida Xorazm, Zarafshon vohasi, Farg'ona, Mirzacho'l singari mintaqalarida sun'iy sug'orishning vujudga kelishi va uning rivojlanish tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratdi. Zero, mamlakatlar va xalqlarning taraqqiyoti ko'pchilik hollarda sun'iy sug'orish tizimining qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va rivojlanganligiga bog'liq bo'lgan.

Qadimgi Xorazmda taraqqiyotining o'ziga xosliklaridan biri bu erda qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan madaniyatning rivoji hisoblanadi. Xorazm taraqqiyoti sun'iy sug'orishga asoslangan tarixiy-geografik mintaqaning eng shimoliy nuqtasi hisoblanadi. Va bu erda sun'iy sug'orish o'ziga xos texnik taraqqiyotga tayanib ish ko'rgan. Shu sababli ham

Ya.G'ulomov o'zining ilk mustaqil arxeologik izlanishlarini Xorazm mintaqasida boshladi. Bu haqida olim o'z esdaliklarida "birinchi marotaba Xorazm vohasiga 1936-yilning may oyida keldim. Tashrifdan maqsad zaif va himoyalangan Xiva asori atiq qo'mitasi faoliyati bilan tanishish edi. Bir oycha Xivada bo'ldim. Mang'it yaqinidagi Qubatau tog'idan ossuariylar qabristonini topgan edim. Toshkentga borganimdan so'ng bu to'g'risida "Pravda Vostoka" gazetasining 17-avgust sonida maqolam chiqdi. Maqola chiqqach, O'zbekiston tarixi muzeyi ilmiy xodimi T.Mirg'iyosov tashabbusi bilan 1936-yil sentyabr oyida Xorazmga ekspeditsiya tashkillashtirildi. O'zbekiston tarixi muzeyi hamda "Uzkomstaris" ikkisi birgalikda shartnoma tuzib, meni va T.Mirg'iyosovni Xorazmga ilmiy ekspeditsiyaga bosh qilib jo'natdilar"[9, 6-8-bb; 10, 2-14-bb; 16, 48-53-bb] –deb yozadi.

1937-yildan 1950-yilgacha Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (II – jahon urush yillarida 1940-1945 yillarda ekspeditsiya o'z ishini vaqtincha to'xtatib turgan) tarkibida olib borilgan ko'p yillik arxeologik tekshirishlar, qadimiy qo'lyozmalar tahlili va etnografik ma'lumotlar asosida Xorazmning necha ming yillik ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini to'liq aks ettirgan bir qator ilmiy asarlar[11, 17] yuzaga keldi. Bular ichida hanuz o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan "Xorazmning sug'orilish tarixi (qadim zamonlardan hozirgacha)"[12] asari alohida o'rin tutadi.

Sharq mamlakatlari, shu jumladan Markaziy Osiyoning iqlim sharoiti va er tuzilishi qadim zamonlardan boshlab kanallar qazish va suv inshootlari vujudga keltirish orqali sun'iy sug'orishni dehqonchilikning asosiy vositalaridan biriga aylantirganligi, shuning uchun ham Sharq mamlakatlarida sug'orish davlat ishi, jamoalar uyushmasi va umumxalq ishining bir qismi ekanligi Ya. G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida o'z isbotini topgan. Asar 1957-yil rus, 1959-yilda esa o'zbek tillarida nashr etilgan. Yahyo G'ulomovning bu asari o'zining hajmi, ilmiy xulosalarning teranligi bilan ajralib turadi. Yahyo G'ulomovgacha Markaziy Osiyoda sug'orilish tarixi bo'yicha maxsus shug'ullangan kishi, mashhur rus sharqshunosi V.V. Bartold edi [12, 10-b; 14, 20-b; 15]. Uning bu sohadagi xizmati shundaki, u sistemali ravishda bir qator sharq tillaridagi yozma manbalardan foydalanib, Turkiston o'lkasi bo'yicha sug'orish tarixining qisqacha tafsilotini yaratdi. Lekin uning ishi mintaqada arxeologik tadqiqotlar hali keng yo'lga qo'yilmaganligi sababli faqat yozma manbalar asosida yozilgan [12,15-b, 175-b, 291-b]. XX-asrning I-yarmida arxeologik izlanishlar bir qadar zamonaviy darajada yo'lga qo'yilgan paytda sug'orish tarixining manba asoslari moddiy yodgorliklar hisobiga favqulodda mo'l-ko'l ma'lumotlar bera boshladi. Shunday sharoitda sug'orma dehqonchilik, suv inshootlari tarixi masalalarini izchil o'rganish vazifasi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibidagi Yahyo G'ulomovning zimmasiga yuklatildi. Yahyo G'ulomovning ushbu asarida Xorazmning 3,5 ming yildan ortiqroq davrini o'z ichiga olgan sug'orilish tarixi davrma-davr talqin etilgan. Asardan ko'rishimiz mumkinki olim ikki xil manbadan juda mohirlik bilan foydalangan. Bular – yozma va arxeologik manbalardir. Asar muqaddima, 9 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib asarning I-IV boblarida qadimgi zamonlardan to milodiy VI asrgacha bo'lgan uzoq tarixiy davr mobaynidagi Xorazm tarixi, iqlimi, geografiyasi va dehqonchilikdagi sun'iy sug'orilishning kelib chiqishi aks etgan(18-113 betlar). V-VII boblarida esa Markaziy Osiyoda sun'iy sug'orilishning ahamiyati yoritiladi. Bundan tashqari, VII–bobda Amudaryo, Kaspiy va Orol dengizlari sohillarida o'zbek, turkman va qoraqalpoq qabilalarining tarqalishi bayon qilinadi. Shuningdek, Xiva xonlari tomonidan o'zbek, ayniqsa, turkman va qoraqalpoq qabilalari ustidan yuritgan hukmronlik siyosati bayon qilinadi(102–248-betlar). Asarning VIII-bobida

sugʻorilish texnikasining tarixiy rivojlanishi, uning xilma-xilligi yoritiladi. Shuningdek bu bobda xalqimizning donishmandligi, koʻp mingyillik tajribasi hamda suvdan unumli foydalanish uchun asrlar boʻyi olib borgan qahramonliklari ham aks etgan(237-267 betlar). Nihoyat, kitobning oxirgi IX- bobi 1917-yildan keyingi sugʻorilish tarixiga bagʻishlangan(280–291-betlar) [12]. Yahyo Gʻulomov oʻz asarida xalq ichida ishlatiladigan juda koʻp xoʻjalik -iqtisodiy atamalaridan foydalanadi va ularning maʼnosini tushuntiradi. Yahyo Gʻulomov ushbu asarini yozish jarayonida Xorazmda oʻzi va S.P.Tolstov oʻtkazgan arxeologik ekspeditsiya natijalariga tayanibgina qolmasdan, ilgari davrda sugʻorilish tarixiga, suv xoʻjaligi tizimiga doir yaratilgan asarlarniyam qunt bilan oʻrgangan. Aynan xonlikning bosh mirobi boʻlib ishlagan Munis, Ogahiy asarlarini, Xorazm tarixi bilimdoni Bayoniy asarlarini chuqur oʻrganadi. Shuningdek, XIX asr oxirlarida Xorazmda boʻlib bebaho manbalar toʻplagan A.V.Kaulbars, A.L.Kun singari olimlar asarlariga eʼtibor qaratdi. Bunday asarlar orasida Ya. Gʻulomovning eʼtiborini tortgani, XX-asr 20-yillarida bevosita vohada boʻlib, koʻrgan-kechirganlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini monografiyalarga muhrlagan F.P.Morgunenkov va V.V.Sinzerlinglarning faoliyatlari boʻldi. Olim Bartoldning “Turkistonning sugʻorilish tarixi” asarini ham chuqur oʻrganadi, shu bilan birga uning ayrim fikr-mulohazalariga eʼtiroz bildiradi[13, 35-38-bb]. Ya.Gʻulomov V.V.Bartold Xorazmda boʻlmagan va Xorazmni tarixiy topografiyasini yaxshi bilmagan hamda yuqoridagi asarini asosan yozma manbalar asosida yozgan deb hisoblagan [12, 175-b]. Bundan tashqari arab, fors tilidagi qoʻlyozma asarlar va ularning ingliz, nemis, rus tilidagi nashrlari hamda rus mualliflarining kitoblaridan 400 dan ortigʻini oʻqib oʻrganib, oʻz asarida shu manbalardan iqtiboslar keltirib oʻtdi. Ulardagi voqeliklar jarayonini bir-biriga taqqoslab chiqdi, shulardan kelib chiqib mavzuga yondoshgan holda sohaga doir betakror asar yaratdi.

“Xorazmning sugʻorilish tarixi” asariga ilmiy jamoatchilik tomonidan berilgan yuksak baho avvalo, tarix va arxeologiya sohasida Yahyo Gʻulomovning yirik olim sifatida eʼtirof etilishini, qolaversa oʻzbek arxeologiyasining ulkan yutugʻini koʻrsatar edi. Bu yutuq, shubhasiz uzoq yillar davomida olib borilgan fidokorona mehnatning va hayotda orttirgan ulkan tajribalarning samarasi edi. Yahyo Gʻulomovning 1930–1940-yillarda qadimgi Xorazm erlarida ilmiy tadqiqotlar paytida orttirgan tajribasi keyingi oʻn yilliklar davomida Buxoro, Toshkent, Fargʻona va Janubiy Oʻzbekiston viloyatlarida qadimgi moddiy madaniyatni, sugʻorma dehqonchilik madaniyati tarixini oʻrganishda juda qoʻl kelgan edi.

**Xulosa va takliflar:** Akademik Yahyo Gʻulomovni respublikamizning turli hududlarida olib borgan izlanishlari nafaqat tarix va arxeologiya fanlari, balki, manbashunoslik, muzeyshunoslik, numizmatika, oʻzbek tili va adabiyoti, folklorshunoslik, tabiiy fanlar sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimning ulkan nazariy–ilmiy, tashkiliy–ilmiy, murabbiylik faoliyatini ijtimoiy–siyosiy noqulay sharoitlarda samarali darajada olib borishining oʻzi noyob bir hodisa sifatida nazariy ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Yahyo Gʻulomovning olimona xulosalari tarix fanida yirik nazariy masalalarning toʻgʻri yechimini belgilab berganligi bilan ham ahamiyatlidir. Yahyo Gʻulomovning Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibidagi tadqiqotlari Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida Beruniy, Toʻrtkoʻl tumanlarida Qirqqiz, Yonbosh qalʼa, Tuproqqalʼa, Teshikqalʼa, Qalʼaliqir, Koʻzaliqir kabi yodgorliklarni oʻrganib, u erlar qadimda sugʻorilib ekin ekilganini, keyin choʻl boʻlib qolgan erlarni koʻrsatib berdi. Hozir bu erlarda sugʻorish ishlari tiklanib, bogʻlar, paxtazorlar vujudga kelgan[13, 35-38-bb].

Bugungi kunda olimning shogirdlari ham umrlarining keksalik faslida yashamoqdalar. Uni tanigan-bilgan zamondoshlarimiz taqdiri azal sabab birin-ketin hayotdan ko'z yumishmoqda. Shuningdek, biz maqolamizda ta'kidlab o'tgan "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarini va olimning asarlarini topib, ular asosida akademikning saylanma asarlarini nashr etish kerak deb hisoblaymiz.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Муҳаммаджонов А.Р. Яхё Фуломовни хотирлаб. Тошкент. Фан. 2000 й.
2. Асқаров. А. Ўзбек археологиясининг отаси. Ўзбекистон овози. газ, 1993 й 1 май
3. Асқаров А., Муҳаммаджонов А. Археологиямиз сардори. Совет Ўзбекистони. 1988-йил. 11-май, 4-бет
4. Асқаров. А. Устозларим . Совет Ўзбекистони. газ, 1989-йил 16-апрель 3-бет
5. Асқаров.А. Академик Я.Фуломовнинг хаёти ва фаолияти хақида. Ўзбекистон тарихи. 2008-йил № 2, 19-26 бет
6. Асқаров А. Хаёт принципага содиқ устозлар. Общественные науки в Узбекистане. 1993-йил № 7, 34-35 бет
7. Я.Фуломов таваллудининг 100 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Тошкент. 2008. 1-8 бет, 79-92 бет
8. Луниин Б. Яхья Гулямович Гулямов. Ташкент. Фан, 1979 г. 68 с
9. Yahja G'ulam. O'tmish izlari (arxeologik tekshirishlar). Guliston, 1937 yil № 4, 6-8 bet;
10. Yahyo G'ulomovning Xorazm hududlarida tarixiy yodgorliklarni o'rganish maqsadida olib borgan kuzatuv ishlari kundalik daftaridan, 1936-1939-yillar. (O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi, F-2883, R-1, yigmajild 52, 2-14 bet
11. Bu yerda faqat Yahyo G'ulomov faoliyati bilan bog'liq asarlar nazarda tutilmoqda. Dastlabki dala ishlari natijalari maqolalar tarzida jurnallarda va boshqa davriy nashrlarda chop etib borilgan. Qarang, masalan: Yahja G'ulamov. Qizilqum ichida qadimgi madaniyat izlari. Sotsialistik fan va turmush, 1939 yil № 7-8, 39-41 bet (O'z Milliy Arxivi, F-2883, R-1, yigmajild 6); O'sha muallif. Tarixiy yodnomalar . Sotsialistik fan va turmush. 1939 yil № 12, 23-25 bet (Fundamental kutubxona D-132); O'sha muallif Qadimgi zamon ishlarini o'rganish. Sotsialistik fan va turmush, 1939 yil № 1, 20-22 bet (Fundamental kutubxona D-132)
12. Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи, қадимги замонлардан ҳозиргача. Тошкент. Фан. 1959, 10-бет;
13. Канимкулов О.Ш. Яхья Гулямов – крупный ученый-исследователь истории орашаемой земледельческой культуры. Москва. Вестник науки и образования. 2020 г № 9, 35-38 стр
14. Толстов. С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент. 1964, Фан, 20-бет;
15. Бартольд В.В. К истории орашения Туркестана. // Сельское хозяйство и лесоводство. 1913.
16. Канимкулов.О.Ш. Ўзбекистондаги тарихий ва маданий ёдгорликларни ўрганишда Яхё Фуломовнинг ўрни. Ўтмишга назар. Тошкент, 2021, июнь № 4 (6-сон) 48-53 бб,
17. Гулямов.Я.Г Памятники города Хивы. Труды Узбекстанского филиала Академии наук СССР, Выпуск 3, гор Ташкент 1941



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 4 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).